

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
SPECIAL ISSUE-1



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
№SI-1 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-1>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук (DSc), профессор

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабирова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук (DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурад Мансур Бобомурадovich**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайылдаева Асель Кокоевна**  
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)  
**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)  
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz) решает задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Пармонов Фарход Ярашевич**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)  
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**  
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

**Камалова Хатира Сабыровна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Ахмедова Феруза Медетовна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Аликариёва Аълохон Нуриддиновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Сеитова Зухрагон Пиржановна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Махкамов Қодиржон Одилжонович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Доспанова Дилара Уракбаевна**  
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

**Каримов Бобир Шаропович**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Якубов Ильдар Харрасович**  
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)  
**Абдухалилов Абдулло Абдухамитович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>Кириш сўзи</b> .....	6
<b>1. Xolbekov Abdug‘ani</b> KOLONIALIZMNING IJTIMOIIY QIYOFASI (TURKIY XALQLARNING ISTILO QILINISHI MISOLIDA).....	9
<b>2. Убайдуллаева Раиса</b> ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ: СТРУКТУРА, СОДЕРЖАНИЕ И ПРАКТИКА ПРИМЕНЕНИЯ.....	17
<b>3. Сеитова Зухрагон</b> ОТРАЖЕНИЕ ЖЕНСКОЙ КРАСОТЫ В ПОЭЗИИ ПОЭТОВ-СУФИСТОВ.....	24
<b>4. Alikariyeva A‘loxon</b> TA‘LIM SIFATI BOSHQARUVI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA TURLI YONDASHUVLAR TAHLILI.....	34
<b>5. Mo‘minov Zokirjon</b> TASHQI MIGRATSIYA: DAVLATLARNING INTEGRATSIYA SIYOSATI (BUYUK BRITANIYA MISOLIDA).....	40
<b>6. Ходжаев Собир</b> ИНДЕКС АКТИВНОГО СТАРЕНИЯ И ЗАНЯТОСТЬ ПОЖИЛЫХ ЛЮДЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	46
<b>7. Абдувалиева Мумтозхон</b> СОЦИАЛЬНО-ДЕМОГРАФИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ И БАРЬЕРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИ ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОВЕДЕНИЯ.....	55
<b>8. Burxanov Xusniddin</b> MILLIY SAYTLAR MODERNIZATSIYALASHUVINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI.....	66
<b>9. To‘raxo‘jaeva Ra‘no</b> AHOLI ORASIDAGI NOROZILIK KAYFIYATINI YUZAGA KELISHIDA AXBOROT TECHNOLOGIYALARINING O‘RNI.....	73
<b>10. Nematova Dilfuza</b> KAMBAG‘ALLIKNI O‘RGANISHDAGI ILMIY NAZARIY YONDOSHUVLAR.....	78
<b>11. Eshmanova Iroda</b> TRENDS IN CHANGES IN THE NATIONAL MENTAL CHARACTERISTICS OF UZBEK YOUTH IN MIGRATION CONDITIONS.....	87
<b>12. Teshayev Doniyor</b> OILAVIY NIZOLARNI HAL ETISH BO‘YICHA MEDIATORLAR TAYYORLASH YO‘NALISHLARI.....	94
<b>13. Pخomov Umrbek</b> O‘ZBEKISTON MAHALLALARIDA YOSHLARNING IJTIMOIYLASHUV JARAYONLARINING XUSUSIYATLARI.....	100
<b>14. Nurqulov Bunyod</b> YOSHLAR SIYOSIY IJTIMOIYLASHUVINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA UNING JAMIYATDAGI O‘RNI.....	106
<b>15. Qobilov Uchqun</b> DAVLAT XIZMATCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGI VA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH UYG‘UNLIGI.....	114

<b>16. Izzatulloeva Kamilla</b> IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF ANTI-CORRUPTION EFFORTS IN THE SOCIAL SPHERE OF UZBEKISTAN.....	120
<b>17. Burxanov Xusniddin</b> AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MILLIY SAYTLARNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.....	128
<b>18. Imomova Nozimaxon</b> O'ZBEKISTONDA MEHNAT MIGRATSIYASI SUBYEKTLARI SA'I-HARAKATLARINING MOTIVATSION TAVSIFI.....	135

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Imomova Nozimaxon,**


Farg‘ona davlat universiteti

“Sotsiologiya” kafedrası dotsenti

sotsiologiya fanlari bo‘yicha f.dok.(PhD)

e-mail: imomovanozima4@gmail.com

### O‘ZBEKISTONDA MEHNAT MIGRATSIYASI SUBYEKTLARI SA’I- HARAKATLARINING MOTIVATSION TAVSIFI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.16423504>

#### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tashqi mehnat migratsiyasi subyektlari harakatlarining motivatsion ta’siri yoritilgan bo‘lib, unda O‘zbekiston respublikasi fuqarolari faol xalqaro mehnat bozori ishtirokchisi sifatida namoyon bo‘lishi ilmiy tahlil qilingan. Shu o‘rinda, mehnat migrantlari hamda ularning oila a‘zolarini qonuniy himoyasini takomillashtirish bo‘yicha davlat siyosatini ishlab chiqish uchun asosan mehnat migratsion jarayonlarni tuzilishi va harakatlanishida davlat boshqaruv mexanizmining asosiy xususiyatlarini tahlil qilishni talab etilishi izohlangan. Shuningdek, mamlakatda migratsion harakatlarning joriy holati va o‘zgarish tendensiyalari qiyosiy tahlil qilinib uning ijtimoiy transformatsiyalashuvi jarayonini turli ta’sirlari o‘rganilib, inson kapitali mamlakatning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishiga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatishi yoritilgan. Xususan, qishloq xo‘jaligi, qurilish va xizmat ko‘rsatish kabi ko‘p mehnat talab qiladigan tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlashga, tadbirkorlikni rag‘batlantirishga o‘zining ijobiy ta’sirlari aniqlanib, tadqiqot jarayonida o‘rganilgan muommolar yechimini takomillashtirish yo‘llari taklif va tavsiyalar orqali taqdim qilingan.

**Kalit so‘zlar:** mehnat migratsiyasi, motivatsiya, subyekt, tendensiya, huquqiy himoya, xalqaro mehnat bozori, mamlakat.

**Имомова Нозимахон,**

PhD, доцент кафедры «Социология»

Ферганского государственного университета

e-mail: imomovanozima4@gmail.com

### МОТИВАЦИОННОЕ ОПИСАНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

#### АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается мотивационное воздействие внешней трудовой миграции, а также научно анализируется проявление граждан Республики Узбекистан как активных участников международного рынка труда. В этом контексте поясняется, что для разработки государственной политики по совершенствованию правовой защиты трудовых мигрантов и членов их семей необходимо проанализировать основные черты государственного механизма управления структурой и функционированием процессов трудовой миграции. Также научно

анализируется современное состояние и тенденции миграционных движений в стране, изучаются их различные воздействия на процесс социальной трансформации, а человеческий капитал оказывает определенное влияние на социально-экономическое развитие страны. В частности, посредством сравнительного анализа объясняется его положительное влияние на поддержку трудоемких секторов, таких как сельское хозяйство, строительство и сфера услуг, а также на поощрение предпринимательства, а также даются предложения и рекомендации по улучшению решений изучаемых проблем.

**Ключевые слова:** Трудовая миграция, мотивация, субъект, тенденция, правовая защита, международный рынок труда, страна.

**Imamova Nozimakhon,**  
Fergana State University  
Associate Professor of the Department of “Sociology”  
Doctor of Philosophy (PhD) in Sociology  
e-mail: imomovanozima4@gmail.com

## MOTIVATIONAL DESCRIPTION OF THE ACTIVITY OF LABOR MIGRATION INTERVIEWERS IN UZBEKISTAN

### ABSTRACT

This article discusses the motivational impact of the actions of external labor migration subjects, and scientifically analyzes the manifestation of citizens of the Republic of Uzbekistan as active participants in the international labor market. In this regard, it is explained that in order to develop a state policy to improve the legal protection of labor migrants and their family members, it is necessary to analyze the main features of the state management mechanism in the structure and functioning of labor migration processes. Also, the current state and trends of migration movements in the country are scientifically analyzed, and various impacts on the process of its social transformation are studied, and human capital has a certain impact on the socio-economic development of the country. In particular, its positive effects on supporting labor-intensive sectors such as agriculture, construction and services, and encouraging entrepreneurship are explained through comparative analyses, and suggestions and recommendations are presented for improving the solution to the problems studied.

**Keywords:** Labor migration, motivation, subject, trend, legal protection, international labor market, country.

### KIRISH

Bugungi kunda mehnat migratsiyasi migrantlar borgan mamlakatning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishga muayyan darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, qishloq xo'jaligi, qurilish va xizmat ko'rsatish kabi ko'p mehnat talab qiladigan tarmoqlarni qo'llab-quvvatlashga, tadbirkorlikni rag'batlantirishga, ijtimoiy himoya tarmoqlarini qo'llab-quvvatlashga va ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojni qondirishga yordam beradi.

Ma'lumki, dunyo hamjamiyatida odamlarning chet mamlakatlarga ishlash uchun harakatlanishi aholining katta ulushini tashkil qiladi. Bunda O'zbekiston respublikasi fuqarolari ham faol xalqaro mehnat bozori ishtirokchisi sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha “Harakatlar strategiyasi to'g'risida” [3] belgilangan vazifalar, hamda mamlakatimiz hukumati tomonidan olib borilayotgan siyosat, ya'ni migratlar huquqlarini qonuniy tartibda himoya qilish, hususan 2018 yil 5 iyuldagi PQ-3839-son [1] «O'zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiyasi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2020-yil 15-sentabrdagi PQ-4829-son [2] “Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, qarorlari, va boshqa me'yoriy- huquqiy hujjatlar yuqori darajada xizmat qiladi.

2023-yilning chorak ma'lumotiga ko'ra [7] mamlakatimizda mehnat migratsiyasiga jalb etilganlar jami mehnatga layoqatli aholi tarkibida 20 foizni tashkil qiladi.

### **METODOLOGIYA**

Xalqaro mehnat migratsiyasining asosiy omillari mamlakatda daromat olishningg imkoniyatlarining tengsizligi, ba'zi mamlakatlarda ortiqcha ishchi kuchini mavjudligi mehnat muhojirlarini o'ziga jalb etishi bilan birga, qabul qiluvchi mamlakatlarda ularning mehnatiga arzon haq to'lanishi kabi imkoniyatlarni beradi. Shu o'rinda, donor mamlakatlar uchun mehnat bozoridagi demografik ko'rsatkichni kamayishi kabi holatlar ham muhim ahamiyatga egadir [13]. Ko'plab davlatlar kabi aholini samarali ish bilan ta'minlash muammosi va ratsipient mamlakatga nisbatan ish haqqi maoshining nisbatan kamligi muammosi O'zbekiston aholisining ham tashqi mehnat migratsiyasi harakatining tezlashishi mamlakat aholisining iqtisodiy motivi bo'lib xizmat qiladi.

Mehnat migratsiyasini tahlil etar ekanmiz, birinchi navbatda inson kapitalining davlat iqtisodiy rivojlanishining ichki ta'siri haqida to'xtalamiz. Bunday yondoshuv xalqaro mehnat almashinuvi bo'yicha mutaxassis, rus iqtisodchisi Yu.A.Yanovskiy [6] fikriga ko'ra, mehnat migrantlarining daromadi o'zini va oila a'zolarini moddiy jihatdan ta'minlaydi, demak, bu orqali mamlakat iqtisodiy o'sadi, shu bilan birga mutahassisligi va sohasi buyicha malakaga ega bo'ladi.

Bugungi kunda migratsiyani keltirib chiqaruvchi omil dunyoning barcha davlatlarini qamrab olgan. Undagi ijtimoiy-madaniy, siyosiy, iqtisodiy o'zgarishlarning ta'siri tashqi mehnat migratsiyasini shakillantiruvchi omillari O'zbekistonda ham mehnat migratsiyasini jadallik bilan o'sib borishiga sabab bo'ldi.

### **ASOSIY QISM**

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilning birinchi choragi ma'lumotiga ko'ra respublikada tashqi mehnat migratsiyasi 3-4 million kishini tashkil etib, bu ko'rsatkich pandemiya boshida 2,6 million kishini tashkil yetgan yedi. Mehnat migratsiyasi amalga oshayotgan mamlakatlar hissasi Rossiya – 71%, Qozog'iston – 12%, Janubiy Koreya – 4%, Turkiya – 3 foizni tashkil etadi [6]. Shuningdek, Isroil, AQSh, BAA va Yaponiya mamlakatida ham o'zbekistonlik mehnat muhojirlari mavjud.

Mehnat migrantlarining motivatsiyasi mazmuni o'rganilganda asosiy ko'rsatchiki Rossiya davlatiga to'g'ri kelmoqda. Bunga asosiy sababi rus madaniyati, tili, urf odatlari nisbatan bizga tanish ekan o'рта yoshni tashkil qilgan har bir mehnat muhojirining bolalik yillaridan rus xalqi haqida ma'lumotlarga egaligi hamda uzoq muddatli davlat va jamiyatlararo aloqaan'analari mavjudligi bilan izohlanadi.

Motivatsiya mazmunida insonning ya'ni, mehnat migrantlarining xorijdagi ish faoliyat bilan bog'liqligi ham muhim o'rin tutadi. Shu boisdan ham, biz tadqiqotimizda Rossiya va Qozig'iston davlatlarida mehnat muhojirlarining asosiy ish faoliyati yo'nalishini sotsiologik tadqiqotlar orqali aniqladik. Unga ko'ra, migrantlarning katta qismi 48,2 foizni qurilish sohasi amalga oshiradi, shuningdek, sanoat sohasi 15,3%, savdo sotiqa esa 5,4%, transport sohada 8,2%ni tashkil qilsa, 8,3% umumiy ovqatlanish, xizmat ko'rsatish sohasi 9,8%, qishloq xo'jaligi 4,4% va boshqa sohalar 1,3%ni tashkil qildi.

Turli sohalarda mehnat qilayotgan migrantlarning maishiy hayoti, maoshi va ish faoliyati xususida munosabatini o'rganganimizda quyidagi manzara hosil bo'ldi.

### **1-jadval**

#### **Rossiya hududida faoliyat yuritayotgan mehnat migrantlarining ish haqqi va mehnat sharoitlaridan qoniqish darajasi**

№	Hududlar	Maoshidan roziligi	Rahbarlarga munosabati	Maishiy sharoiti	Ish faoliyatidan roziligi
1	Moskva shahri	67,2 %	21 %	34 %	72 %
2	Sankt-Peterburg	68,4 %	26 %	36 %	70,3 %
3	Saratov	50,4 %	34 %	33 %	51,6 %
4	Novosibirsk	61,3 %	46 %	52 %	63,1 %
5	Vladivastok	62,3 %	56 %	58 %	74,2 %
6	Krasnodar	51,5 %	33%	38%	61,7 %

7	Irkutsk	48,8 %	32 %	33 %	40,1 %
8	Sverdlovsk	49,7 %	35 %	35 %	42,2 %


Manba\* Jadval muallif tomonidan is'hlab chiqilgan [8]

Yuqoridagi jadvalga ko'ra Rossiya federatsiyasida faoliyat yuritayotgan o'zbekistonlik mehnat migrantlarining katta qismi Moskva shahri va Sankt-Peterburg hududida ishlashidan nisbatan mamnun ekanligini bildirib, bu yerda qurilish, savdo va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritib, 2022-2024-yillarda mehnat migrantlarining taxminan 40 foizdan ortig'i taxminan 600,000 nafarga yaqin o'zbek migrantlarini Moskva va uning atrofida joylashgan [9]. Keyingi o'rinda Krasnodar o'lkasi, Novosibirsk va Vladivastok ham migrantlar uchun asosiy daromat topish maskan ekani aniqlandi.

2024-yilning birinchi 9 oyida Rossiyaga ishlash uchun 1,748 million o'zbek fuqarosi kirgan bo'lib, bu raqam 2023-yilning shu davriga nisbatan 143,000 nafarga ko'p [10].

2025-yilning yarim choragida 1 million 340 ming nafardan ortiq o'zbekistonliklar xorijda mehnat qilyaptilar. Ularning 600 ming nafari Rossiyada, qolgan qismi Qozog'iston va Turkiyada mamlakatlarida faoliyat yuritadi. Olingan ma'lumotlar tahliliga ko'ra, ushbu 1,3 mln fuqaroning 20 foizini ayollar tashkil etib, o'tkan yillarga qaraganda migrant xotin-qizlar soni kamaygan [18]. Shu o'rinda eslatim o'tish joizki, "The Times Of Central Asia" [19] ma'lumotiga ko'ra, mazkur 2025-yilda Rossiya hukumati o'zining yirik kompaniyalari, jumladan, Ant Yapi, Ozon Community, PEK va SPAR Middle Volga kabi kompaniyalarida 7000 nafar o'zbekistonlikni rasmiy ravishda ish bilan ta'minlanishi bo'yicha kelishuvlar imzolaganligi ham hukumatimiz tomonidan mehnat migrantlarining haq-huquqlarini kafolatlanishini ta'minlashga karatilgan choralardan biridir.

Hayotning eng muhim jihatlaridan biri insoning yahshi yashash omillaridan biri sifatida yuqori ish haqqi insonni o'zi yashab turgan hududda mehnat faoliyatini olib borishida muhim motivatsiya funksiyasini bajaradi [14]. Shuning uchun ham respondentlarning 65,7 foizi migrantlarning yashash hududida ish haqining nisbatan past ekanligini ta'kidladilar.



### 1-rasm. Rossiya davlatida pul topish maqsadida qaysi sohada mehnat faoliyatingizni olib borgansiz?

\*Tadqiqot Rossiya davlatida mehnat muhojirlarining asosiy ish faoliyati yo'nalishini aniqlash maqsadida muallif tomonidan olib borildi.

Yuqoridagi diagrammada Rossiya mamlakatida mehnat muhojirlarining asosiy ish faoliyati qurilish sohasida ekani ko'rinib turibdi. Shuningdek, olingan rasmiy ma'lumotlarga ko'ra ularning ish haqqi, ya'ni Rossiyadagi migrantlar oyiga o'rtacha 47,1 ming rubl (taxminan 640 dollar) maosh oladi. Eng yuqori daromadga qurilish va ta'mirlash sohasida ishlayotgan muhojirlar 54 ming rublga ega bo'lishmoqda, undan keyin transport, omborlarda ishlaydigan migrantlar – 52 ming rubl maosh olishsa, eng past maosh esa uy-joy, kommunal va qishloq xo'jaligida ishlaydigan migrantlar 40,1 yoki 36,8 ming rublni tashkil etadi [15].

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda 2023-yilning yanvar-iyun oylarida o‘rtacha oylik ish haqi 4,3 mln so‘m [20], 250 AQSh dollaridan iborat bo‘lgan. Bu yesa ish beruvchi, mehnat muhojirlarini qabul qiluvchi davlatdan olinadigan daromaddan sezilarli darajada kamdir. 2021 yilda Rossiyada qonuniy ishlayotgan O‘zbekistonlik mehnat migrantlarining o‘rtacha ish haqqi 640 AQSh dollariga teng bo‘lgan [16].

Tabiiyki mehnat muhojirlari olayotgan daromadlari ularning birlamchi ehtiyojlari va oilalarining turmush darajasini ta‘minlashga yordam beradi. Hattoki oiladan bir kishi mehnat muhojiri bo‘lsa ham ularning oilaviy holatidagi eng zarur ehtiyojlar qondiriladi.

Olingan sotsiologik so‘rov natijalariga ko‘ra, 2020-yilda migrantlarning o‘rtacha ish haqqi 710 AQSh dollar bo‘lsa, 2022-yilga kelib esa ko‘tarilish 763 AQSh dollarni tashkil etgan. 1000 QASh dollar va undan ortiq maosh oladigan muhojirlar esa 15,3 foizni tashkil qilgan.

So‘ngi yillarda mehnat migratsiyasiga qo‘yilayotgan talablardan biri bandlikni qonuniy shakllanishining ta‘minlash hisoblanadi. Halqaro sotsiologik tadqiqot markazlari ma‘lumotlariga ko‘ra 2023-yilda mehnat migrantlarning 71 foizi qonuniy (legal) ish bilan band bo‘lib, 29 foizi esa noqonuniy (nolegal) tarzda faoliyat yuritgan [12]. Garchi nolegal ishchilarning jamiyatdagi huquqlari cheklangan bo‘lsa ham, u tomonidan olinadigan ish haqqiga umuman ta‘sir etmaydi, lekin yashash va ish joyida yuz beradigan xatarlar legal ishchilarga nisbatan sezilarli darajada bilintiradi.

So‘rovnoma natijalari migrantlarning aksariyati 74,3% o‘z mehnat faoliyatini legal tarzda tashkil etilishini muhim motivatsion jihat sifatida qayd etadilar.

Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, rivojlanayotgan davlatlarga qilinuvchi mehnat migratsiyasidan olinadigan foyda asosan birlamchi ehtiyojlarni qondirish uchun yetarlidir.

Rivojlangan davlatlarga qilinuvchi mehnat migratsiyasi esa ikkilamchi ehtiyojlarni qondirishga yo‘nalgan motivatsiyadan kuch oladi.

Sotsiologik tadqiqot natijalariga ko‘ra Rossiya va qozog‘istonga qilinaytgan mehnat migratsiyasini motivatsiyasi tahlili shuni ko‘rsatadiki migrantlarning aksariyati ichki qoniqish tuyg‘usiga egadir. So‘rovga jalb etilgan respondentlarning 71 foizi o‘zi olayotgan maosh miqdoridan “umuman rozi” ekanligi va keyingi yilda ham shu hududga mehnat migranti sifatida qaytib kelish ehtimoli 68% ni bildirdi.

Keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasi hukumati mehnat migratsiyasini legal asoslarga ko‘chirishga katta e‘tibor qaratib, bu borada olib borilgan harakatlarda sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Ikkinchi tomondan mehnat migrantlarining legal ishlashi mamlakatlar o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni yaxshilash, mehnat migrantlari va ularning oila a‘zolarining ijtimoiy huquqiy himoyasini ta‘minlashga imkon yaratadi.

Shu narsa e‘tiborga loyiqki Respublikamizdan Janubiy Koreya, rivojlangan davlatlar bo‘lgan AQSh, Germaniya va boshqa g‘arb davlatlari bilan mustaxkam hamkorliklar o‘rnatilib buning natijasida mehnat migrantlari asosan rasmiy tarzda legal faoliyat olib borishmoqda [11].

Olib borilgan empirik sotsiologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mehnat bozorini o‘rganish instituti tomonidan 2022-yilda o‘tkazilgan sotsiologik so‘rov natijalaridan ma‘lum bo‘lishicha, respublikada mehnat migratsiyasining asosiy motivi iqtisodiy va ijtimoiy muommolar yechimiga qaratilgan [14].

Mazkur motivatsion xulosa Qoraqalpog‘iston Respublikasi viloyatlari hamda Toshkent shaxrining 52 ta tumanlarida 2500 kishidan o‘tkazilib aniqlandi.

Yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlarga borib ishlovchi mehnat migrantlari motivatsiyasi anketa so‘rovi orqali quyidagi maqsadlarda amalga oshirildi:

– mehnat migratsiyasining keltirib chiqaruvchi asosiy ijtimoiy va iqtisodiy omillar va ularning sabablarini tadqiq etish;

– mehnat migrantlarini jalb euvchi mamlakatlardagi motivatsiya mazmunini aniqlash;

– migrantlar tomonidan mehnat migratsiyasini turlarining tanlanishi;

– keladigan xorijiy davlatlardagi mehnat muhojirlarining qabul qiluvchi mamlakat taqdim qilayotgan sharoitlarni o‘rganish xoxishi;

– respublikada mehnat migratsiyasi bo‘yicha mavjud ma‘lumotlar bazasini tahlil qiluvchi hujjatlarni o‘rganish;

- mehnat migrantlarini, ayniqsa, yoshlarning yaqin va uzoq xorijda ishlashiga sabab bo‘layotgan omillarni aniqlash;
- mehnat migrantlari orasida mehnat kuchlarining yuboruvchi mamlakat uchun yuz beradigan salbiy oqibatlardan xavotir motivatsiyasi;
- yoshlarning o‘z hududida mehnat faoliyatini amalga oshirishiga to‘sqinlik qilayotgan asosiy motivatsion omillarni aniqlash;
- mehnat migratsiyasini nafaqat obyektiv omillar, balki subyektiv ya‘ni motivatsion jihatlarni hiobga olgan holda tartibga solish bo‘yicha tavsiyalar tayyorlashdan iborat.

Tadqiqot ishimizga jalb etilgan respondentlarning milliy tarkibi asosan yetnik o‘zbeklardan iborat bo‘lib, ularning 84,5 foizini yerkaklar, 15,5 foizini ayollar tashkil yetdi. Ayol migrantlarining ko‘pchiligi 68,5% turmushga chiqqanlar, ozroq qismi turmushdan ajragan 23,9% ayollardan iborat bo‘ldi. Shuningdek, so‘rovda qatnashganlarning 18-30 yoshdagi fuqarolar 40,4 foizni, 31 yosh va undan kattalar – 59,6 foizni tashkil yetdi.

Mehnat migrantlarining 3,2%ni 19 yoshdan kichik bo‘lgan fuqarolar tashkil yetib, bu ko‘rsatkichning nisbatan kichik ulushi hozirda hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosat bilan bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasida 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi [3], hamda “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi [17] “Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish” [4], “Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish” [5] masalalariga alohida ye‘tibor qaratilib, hududlarda yangi ish o‘rinlarini yaratish, yeng avvalo respublika yoshlari bandligini ta‘minlash, mehnat bozori mutanosibligi va infratuzilmalarni rivojlantirish choralaring ishlab chiqish. Aholining ishsizlik darajasini kamaytirish, mehnatga layoqatli aholining asosan yoshlarning mehnat va tadbirkorlik faolligini kuchaytirish uchun kerakli sharoitlarni yaratish, ish bilan band bo‘lmagan ma‘lumoti yo‘q aholini kasb va hunarlarga ega qilish mehnat sifatini oshirish uchun yegallangan kasblar doirasida xodimlar malakasini oshirish tizimini kengaytirish ko‘zda tutilgan.

Shu o‘rinda, rivojlangan mamlakatlar bilan olib borilgan halqaro shartnomalar mehnat migrantlarini huquqiy tomonlaman himoya qilib, mehnat yoshiga yetmagan yoshlarni mehnatga jalb etish kabi holatlarni oldini olishga xizmat qiladi. Bunga misol tariqasida, 2022-yilda Amerika Qo‘shma Shtatlari Xalqaro Taraqqiyot Agentligi (USAID) Xalq ta‘limi departamenti bilan hamkorlikda O‘zbekistonda 5 yil muddat ichida 10 million dollar mablag‘ni o‘zlashtirishga qaratilgan yoshlarni ish bilan ta‘minlash ko‘nikmalari (Youth Yemployment Skills, YeS) dasturi rasman boshlandi. Us‘hbu dasturga ko‘ra, 8-11-sinf o‘quvchilariga malakali mutaxassislar tomonidan iqtisodiy savodxonlikni oshirish va tadbirkorlikning zarur ko‘nikmalarini o‘rgatish orqali ularni ishga joylashtirishga tayyorligi va salohiyatini oshirishga qaratilgan bilim va amaliy tajribalar o‘rgatiladi [21].

Bugungi kunda, mamlakat hukumati tomonidan migratsiya jarayonlarini tartibga solish, hukumat a‘zolari bilan aholi o‘rtasida ochiq muloqotni ta‘minlashga qaratilgan imkoniyatlar mamlakat fuqarolari bilan o‘zaro hamkorlik tizimini yo‘lga qo‘yilishi natijasida mehnat migrantlari bir qancha qulayliklarga ega bo‘ldi. Mehnat muhojirligini tanlagan fuqarolarni huquqiy tomonlaman himoyalash maqsadida, mehnat migratsiyasi yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish va ularni xorijda ishga joylashtirilishida amaliy jihatdan ko‘maklashish yo‘lga qo‘yish bo‘yicha samarali ishlar olib borilmoqda. Aynan fuqarolarga qulaylikni ta‘minlash maqsadida, mamlakatlar o‘rtasida ikki tomonlaman shartnomalar tuzish, aholini xavfsiz va daromadli ish bilan ta‘minlanishi uchun kvotalarni ko‘paytirish harakatlari noqonuniy migratsiyani qonuniylashtirishga erishiladi va mehnat muhojirlariga davlat tomonidan amaliy yordam ko‘rsatish imkoniyatlarini oshiradi maqbul yechim vazifasini bajaradi. Bu borada faoliyatni raqamlashtirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning ijobiy omillardan biri, fuqarolarni xorijda ishlashlari uchun “elektron ariza” berish imkoniyatini mavjudligi, “elektron navbatni” joriy etilishi va ishonch raqamlarini faoliyati samarali natijalarni bermoqda.

2022-yilda o‘tkazilgan tadqiqotlarimiz natijalari shuni ko‘rsatadiki, respondentlarning 41,1% migratsiyaga doir hujjatlarni rasmiylashtirish va kerakli ma‘lumotlarni yig‘ib olishda muommolar borligi va bu faoliyatni bajarish uchun ko‘mak berish tizimini o‘zlashtirish kerakligini qayd etgan

bo'lsa, mehnat muhojirlarini tashvishga solayotgan yana bir muhim muommolardan biri "ratsipient (qabul qiluvchi) mamlakatlarda mehnat muhojirlarning huquqlarini himoya qilinishi" masalasi muhojirlarning 50,9 % ortig'ini tashvishga soldi. Bu holatning oldini olishda, bizning fikrimizcha, O'zbekistonda mehnat migrantlarining barcha sohadagi huquqlarini himoya qilishga qaratilgan mutasaddi tashkilotlar harakatlarini faollashtirish bilan birga xorijdagi mazkur sohaga mass'ul jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish kengaytirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Shu o'rinda, respondentlardan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra O'zbekistonga kelayotgan xalqaro pul o'tkazmalari, oilaviy jamg'arma sifatida, aholi farovonligi va turmush darajasini yaxshilashga katta hissa qo'shmoqda. Migrantlar sarmoyasini asosan ko'chmas mulkka va eng birlamchi ehtiyojlariga sarflaydilar, ya'ni oila a'zolarining ta'lim olishi, sog'liqni saqlash xizmatiga va boshqa ehtiyojlarga sarflashlari aniqlandi.

#### **XULOSA**

Biz respondentlarning javoblaridan xulosa qilgan holda quyida o'zimizning fikr va takliflarimizni keltiramiz.

Tadqiqotimizni o'tkazish mobaynida amalga oshirilgan sotsiologik so'rovlar natijasidan kelib chiqib, mehnat migrantlarini huquqiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha mamlakatimiz "Huquqiy ko'mak maslahatxonalari"ni (Legal assistance offices) tashkil etishni taklif etamiz. Mamlakatimiz mehnat migrantlari oqimining katta qismi yo'nalgan xorijiy mamlakatda hamda Respublikamiz viloyat va tumanlarida bunday markazlarni tashkil etilishi, migrantlarning har tomonlama aniq, ishonchli va har tomonlama ma'lumotga ega bo'lishini ta'minlaydi. Bunday markazlar har tomonlama huquqiy ko'mak berishi, kerakli maslahatlarni berish, o'qitish, muhojirlarni chet mamlakatga moslashish choralari amalga oshirish, mehnat muhojirlarining muhtojlariga ijtimoiy yordam ko'rsatishi kabi yordamlarni ko'rsatish mumkin. Shuni aytishimiz mumkin mamlakatimizdan chetga chiqib ishlayotgan mehnat muhojirlarini jamiyatimiz iqtisodiy, ijtimoiy va dunyoviy ilmlar borasida aholini farovon hayot kechirishiga bevosita ta'sir qilmoqda.

#### **Адабиётлар/ Литература/ References:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. PQ-4829-son15.09.2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. PF-4947-son 07.02.2018
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli
4. O'zbekiston Respublikasi "Aholi bandligi to'g'risida"gi O'RQ-642-sonli Qonuni / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.10.2020-y., 03/20/642/1396-son.
5. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida/ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 18.01.2021-yildagi 23-son qarori.
6. Агентстве по внешней трудовой миграции при Министерстве занятости и трудовых отношений Республики Узбекистан: [сайт]. URL: <http://www.migration.uz/post/view/33> (дата обращения: 31.03.2023).
7. Открытые данные в соответствии с законодательными актами о бюджете // Агентстве по внешней трудовой миграции при Министерстве занятости и трудовых отношений Республики Узбекистан: [сайт]. URL: <http://www.migration.uz/post/view/33> (дата обращения: 31.03.2023).
8. Muallif tomonidan O'zbekimton respublikasining ayrim hududlari bo'yilab o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar natijasi.
9. Uzbeks top ranking by labor migrants who went to Russia- Tashkent Times.<https://tashkenttimes.uz/national/11061-uzbeks-top-ranking-by-labor-igrants>
10. Uzbekistan tops list of labor migrants to Russia in 2024. <https://qalampir.uz/en/news>
11. Uzbekistan tops list of labor migrants to Russia in 2024. <https://qalampir.uz/en/news>

12. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga// Газета.uz : [сайт]. 8.02.2023//<https://www.gazeta.uz/uz/2023/08/02/salary>.
13. Имомова Н.А. Ўзбекистонда ишчи кучи миграция жараёнларининг замонавий жараёнлари //журнал социальных исследований. – 2021. – т. 4. – №. 1
14. Imomova N.A. (2022). Mamlakatimizda mehnat migratsiyasi tizimini raqamlashtirish. Academic research in yeducational sciences, 3(4), 1093-1102.
15. Россияда мигрантларнинг ўртача маоши – 47,1 минг рубл // Газета.uz:[сайт]15.12.2021. URL: <https://www.gazeta.uz/ru/2021/12/15/migrants/> (дата обращения: 31.03.2023).
16. Средняя зарплата мигранта в России – 47,1 тысячи рублей // Газета.uz:[сайт].15.12.2021. URL: <https://www.gazeta.uz/ru/2021/12/15/migrants/> (дата обращения: 31.03.2023).
17. <https://president.uz/uz/pages/view/strategy.menu>
18. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/01/24/migratsiya>
19. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/02/07/labor-migration>
20. <https://www.gazeta.uz/uz/2023/08/02/salary/>
21. <https://uz.tafsilar.info/novosti-uzbekistana/usaid-zbekistonda-joshlarni-ish-bilan-taminlash-uchun-10-million-dollar-azhratadi/>

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
SPECIAL ISSUE-1

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000